

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSİYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF LEGAL GUARANTEES FOR ENSURING THE LABOR RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES

Ismailov Bekjon Salikhovich

Senior Lecturer, Doctor of Philosophy in Law (PhD)

National University of Uzbekistan

E-mail: bekjon.4@mail.ru

Abstract. The article provides a detailed analysis of the labor rights of persons with disabilities and their legal guarantees. As is known, on 07.07.2021, the Convention on the Rights of Persons with Disabilities was ratified by the Republic of Uzbekistan. The ratification of this international document has increased attention to persons with disabilities in our country. In this sense, the attitude of employers to the issue of employment of persons with disabilities has also changed in a positive direction.

The article also provides a legal analysis of the benefits for persons with disabilities established by the Labor Code of the Republic of Uzbekistan. If we pay attention to the legislation on the rights of persons with disabilities, we can see in Article 42 of the law the norms related to ensuring the labor rights of this category of persons.

Keywords: persons with disabilities, state, law, labor legislation, benefits, privileges, employment.

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI

Ismailov Bekjon Salixovich

katta o'qituvchi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilish huquqlari va ularning huquqiy kafolatlari atroflicha tahlil qilingan. Ma'lumki, 07.07.2021 yilda nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilindi. Mazkur xalqaro darajadagi hujjatning ratifikatsiya qilinishi mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan e'tiborni kuchaytirdi. Shu ma'noda, nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash masalasiga ham ish beruvchilarning munosabati ijobiy tomonga o'zgardi.

Shuningdek, maqolada, O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida belgilangan nogironligi bo'lgan shaxslarga oid imtiyozlar ham huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka e'tibor qaratadigan bo'lsak, qonunning 42-moddasida mazkur toifadagi shaxslarning mehnat huquqlarini ta'minlanishi bilan bog'liq normalarni ko'rishimiz mumkin. Shu kabi huquqiy normalar tahlili maqolaning mazmun mohiyatini tashkil etadi

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, davlat, qonun, mehnat qonunchiligi, kvota, imtiyoz, ish bilan ta'minlash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N79>

Kirish. Bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlashda davlat darajasidagi bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunday islohotlardan biri bu nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan ta'minlanishi bo'yicha qonunchilik doirasida belgilanayotgan imtiyozlardir. Ma'lumki, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashishlari va ularning mehnat faoliyati jarayonida maxsus shart-sharoitlarga ega bo'lishlari bu toifa shaxslarga nogironlik holati bilan bog'liq oqibatlarni nisbatan qisqartirishga yordam beradi.

Deylik, nogironligi bo'lgan shaxs biror bir ishlab chiqarish korxonasida faoliyat yuritadigan bo'lsa, uning erkin ishlashi uchun bu toifa shaxsga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratib berilishi talab etiladi. Shu jihatdan olib qaraganda, bu toifa shaxslar ham munosib mehnat shart-sharoitlarida ishlash huquqiga ega sanalishadi. Aynan mana shu norma O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 42-moddasida ham bevosita nazarda tutilgan. Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniish huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilish huquqini ta'minlash masalasida fikr yuritar ekanmiz, bu toifa shaxslarning mehnat qilish huquqlari ularning konstitutsiyaviy huquqi bo'lib, bir qator xalqaro va milliy sohaviy qonunchilik asoslari yordamida mustahkamlab qo'yilganligini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Misol uchun nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi qonunning 42-moddasida quyidagicha norma keltirilgan:

Nogironligi bo'lgan shaxs odatdagi mehnat sharoitlariga ega tashkilotlarda, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatidan foydalanuvchi ixtisoslashtirilgan korxonalarda, sexlarda va uchastkalarda ishlashga, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan yakka tartibdagi mehnat faoliyatini yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishga haqli.

Mehnat munosabatlarining barcha shakllariga nisbatan, shu jumladan ishga qabul qilish shartlariga, ishga yollashga, mehnat faoliyatini amalga oshirishga, ishni saqlab qolishga, xizmatda (ishda) lavozim bo'yicha ko'tarilishga, shuningdek xavfsiz mehnat sharoitlari ta'minlanishiga nisbatan nogironlik belgisiga ko'ra kamsitish taqiqlanadi[2].

Ushbu huquqiy normadan anglashiladiki, mehnat munosabatlari jarayonida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari regulyar tartibda ta'minlab beriladi. mehnat faoliyati doirasida ularni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, 13.12.2006-yilda BMT tomonidan qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi tomonidan O'RQ-695-son qonuniga muvofiq, 07.06.2021-yilda ratifikatsiya qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya muhim ahamiyatga ega. Mazkur konvensiyaning 27-moddasiga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlatlar quyidagi majburiyatlarga ega ekanliklari qayd etilgan: Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish huquqini e'tirof etadi; bu mehnat bozori va ishlab chiqarish muhiti nogironlar uchun ochiq, inklyuziv va ishtirok etish imkoniyati bo'lgan sharoitda nogiron o'zi tanlagan va erkin rozi bo'lgan mehnat faoliyati orqali turmush kechirishiga pul ishlab topish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini qamrab oladi. Ishtirok etuvchi davlatlar mehnat qilish huquqini, shu jumladan mehnat faoliyati davomida nogiron bo'lgan shaxslarning mehnat qilish huquqini, jumladan, qonunchilik yo'li bilan belgilangan tartibda amalga oshirish huquqini ta'minlaydi va rag'batlantiradi.

Shu jumladan, ular quyidagi zarur choralarni ko'radi: bandlikning barcha shakllarida, shu jumladan ishga qabul qilish, yollash va bandlik, ish joyini saqlab qolish, xizmat lavozimida ko'tarilish, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga taalluqli masalalarda nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni man etish; nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda adolatli va qulay ish sharoitlariga ega bo'lish, shu jumladan, teng qimmatga ega bo'lgan mehnat bilan shug'ullanish va buning uchun teng rag'batlantirish, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga ega bo'lish, shu jumladan xurujlardan himoya qilinish va shikoyatlari qondirilishi huquqlarini himoya qilish; nogironlar boshqalar bilan teng ravishda o'zlarining mehnat va kasaba uyushma huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash; nogironlarga umumiy texnikaviy va kasbiy yo'naltirish dasturlari, ishga joylashtirish xizmatlari, kasbiy va uzluksiz ta'lim olishdan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish; mehnat bozorida nogironlarning ishga joylashish va xizmat lavozimida ko'tarilish, shuningdek ish izlash, ishga ega bo'lish, ish joyini saqlash va mehnat faoliyatini qaytadan boshlash imkoniyatlarini kengaytirish; shaxsiy mehnat faoliyati, tadbirkorlik, shirkatlarni rivojlantirish va o'z biznesini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish; nogironlarni davlat sektoriga ishga yollash; nogironlarni tegishli strategiyalar hamda ijobiy harakatlar, rag'batlar va boshqa choralarni qamrab olishi mumkin bo'lgan dasturlar yordamida xususiy sektorda ishga yollashni rag'batlantirish; nogironlarning ish joylarini oqilona moslashtirishni ta'minlash; ochiq mehnat bozori sharoitlarida nogironlarning ish tajribalarini o'zlashtirishlarini rag'batlantirish; nogironlarni kasbiy va malaka reabilitatsiyasini, ish joylarini saqlab qolish va ishga qaytib kelishga qaratilgan dasturlarni rag'batlantirish.[3] Yuqorida keltirilgan huquqiy normalar mazmun mohiyatiga qaraydigan bo'lsak, ma'lum bo'ladiki, nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlash davlat ijtimoiy himoya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu ma'noda, mamlakatimizda, nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlash bo'yicha 3 foizli kvota belgilangan. Ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur 3 foizli kvota minimal zaxira ish o'rinlari doirasida belgilangan.

Shuningdek, mehnat qonunchiligida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab quvvatlash bo'yicha bir qator imkoniyat va imtiyozlar taqdim etilgan. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi mustahkamlandi".

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 21-dekabrda PQ-57-son qaroriga muvofiq: "2022-yil 1-yanvardan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya berilishi; nogironligi bo'lgan shaxslar hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyoz mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,41 baravaridan 3 baravarigacha oshirilishi;

2022-yil 1-fevraldan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tuman (shahar) hokimlarining qarori bilan belgilangan ish o'rinlarining eng kam soni va ish beruvchilar tomonidan ish o'rinlari zaxiraga qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar".

"Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritiladigan bo'sh ish o'rinlari milliy bazasida aks etib borilishi belgilandi[4]. Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31avgustdagi 486-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning ishlashi tavsiya qilingan kasblar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning samarali mehnati faoliyatini amalga oshirishi uchun ish joylari bilan ta'minlanishi tavsiya etilgan qulay shart-sharoitlarni nazarda tutuvchi:

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tavsiya etilgan ishchi kasblar va xizmat lavozimlarining namunaviy ro'yxati (klassifikatori) 1-ildovaga muvofiq;

Nogironligi bo'lgan shaxslarning faoliyat yuritishi uchun ish o'rinlari va kasblarni moslashtirish bo'yicha tavsiyalar 2-ildovaga muvofiq;

Nogironligi bo'lgan shaxslarning faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan kasblar va lavozimlar ro'yxati hamda mehnat sharoitlari bo'yicha tavsiyalar 3-ildovaga muvofiq tasdiqlandi[5].

Mehnat kodeksi (keyingi o'rinlarda — MK) 4-moddasi 3-qismiga ko'ra, mehnat va mashg'ulotlar sohasida xodimlarning huquqlarini mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki yuqoriroq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar (oilaviy vazifalarni bajarish bilan band bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va boshqalar) to'g'risidagi alohida g'amxo'rlik bilan bog'liq holda asoslangan tarzda farqlash, istisno etish, ularga afzallik berish, shuningdek ularni cheklash kamsitish deb hisoblanmaydi.

MK 119-moddasiga ko'ra, ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Quyidagilar ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdir: mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash to'g'risidagi talablarni buzish va boshqalar. Ya'ni nogironligi bo'lgan shaxsni aynan nogironlik belgisiga ko'ra ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Natijalar va muhokama. Mehnat kodeksining bir qator moddalarida nogironligi bo'lgan xodimlarga alohida kafolat va imtiyozlar berilgan. Quyida shularga to'xtalib o'tamiz.

Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan mehnat shartnomasini tuzishda nimalar e'tiborga olinishi zarur.

1. MK 96-moddasiga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari jumlasiga kiradi va davlat ularni ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilangan ish o'rinlarining eng kam soni hisobidan zaxiradagi ish o'rinlariga mahalliy mehnat organlari yo'llanmasiga ko'ra ishga joylashish kafolatlanadi. (MK 423-moddasi).

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan xodimlarining soni 20 nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlar umumiy sonining kamida 3 foizi miqdorida ish o'rinlarining eng kam soni belgilanadi. Masalan,

100 nafar xodim ishlaydigan tashkilotda (mulkchilik shaklidan qat'i nazar) kamida 3 ta ish o'ri nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilib qo'yiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qaroriga 1-ilova 6-7-bandlariga ko'ra, xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlar har yili: 1 avgustdan kech bo'lmagan muddatda lavozimlarni hisobga olgan holda kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining umumiy sonini belgilaydi; 15 avgustdan kech bo'lmagan muddatda kelgusi yil uchun ish o'rinlarining zaxiraga qo'yiladigan umumiy soni to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli shakl bo'yicha tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish markaziga taqdim etadi.

2. I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi, lekin olti kunlik ish haftasida — olti soatdan, besh kunlik ish haftasida — yetti soat o'ttiz daqiqadan ortib ketmasligi kerak (MK 427-moddasi).

Demak, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga 6 kunlik ish haftasida 6 soatdan va 5 kunlik ish haftasida 7,5 soatdan ortiq bo'lmagan ish vaqti belgilanishi zarur.

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarning mehnatiga ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida haq to'lash tegishli kasb va lavozimlardagi xodimlarga to'liq ish vaqti davomiyligidagi miqdorda amalga oshiriladi (MK 431-moddasi).

Diqqat! Agar I va II guruh nogironligi bo'lgan xodim 18 yoshga to'lmagan bo'lsa o'quv ta'tili vaqtida ish vaqtining muddati:

16 dan 18 yoshgacha bo'lganlarga – haftasiga 36 soatdan ;

15 dan 16 yoshgacha bo'lganlarga – haftasiga 24 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi (MK 415-moddasi 1-qismi).

Ta'til vaqtida 18 sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarning kundalik ish vaqti qisqartirilgan hollardagi mehnatiga haq kundalik ish vaqti to'liq bo'lgan chog'da tegishli toifadagi xodimlarga beriladigan miqdorda to'lanadi (MK 420-moddasi 1-qismi).

O'qishdan so'ng ishlayotgan o'quvchilarning o'quv yili davomidagi ish vaqti muddati esa:

16 dan 18 yoshgacha bo'lganlarga – haftasiga 18 soatdan;

15 dan 16 yoshgacha bo'lganlarga – haftasiga 12 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi (MK 415-moddasi 2-qismi). Korxonalarda o'qishdan bo'sh vaqtida ishlayotgan o'quvchilarning mehnatiga ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda yoki ishlab chiqargan mahsulotiga qarab haq to'lanadi (MK 420-moddasi 4-qismi).

3. Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan ularga sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatma bo'lgan ishlarda foydalanish taqiqlanadi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining nogironligi bo'lgan shaxslarning to'liqsiz ish vaqti rejimi to'g'risidagi, yuklamani kamaytirish haqidagi va mehnatning boshqa shart-sharoitlari to'g'risidagi tavsiyalari ish beruvchi tomonidan bajarilishi majburiydir.

4. I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga davomiyligi kamida 30 kalendar kundan iborat yillik mehnat ta'tili beriladi va ular bu ta'tildan yilning o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtida foydalanishi mumkin. (MK 218 va 429-moddalari).[6]

5. Nogironligi bo'lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishga, tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga hamda dam olish va ishlamaydigan bayram kunlaridagi ishlarga

jalb qilishga faqat ularning roziligi bilan, agar ushbu xodimlar uchun bunday ishlar tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tavsiyalarida taqiqlanmagan bo'lsa, yo'l qo'yiladi. (Mehnat kodeksi 428-moddasi).

6. I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga yillik asosiy ta'til birinchi ish yili uchun ularning xohishi bo'yicha 6 oy o'tmasdan oldin beriladi (MK 227-modda 3-qismi).

7. I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga ularning xohishiga ko'ra ikkinchi va keyingi ish yillari uchun har yilgi mehnat ta'tili qulay bo'lgan vaqtda berilishi kerak (MK 228-modda 4-qismi).

8. I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga ularning xohishiga ko'ra, har yili 14 kalendar kunga qadar ish haqi saqlanmagan holda muqarrar tartibda ta'til ("bez soderjaniye") beriladi Bu holatda ish beruvchi bilan kelishuv shart emas (MK 242 va 430-moddalari).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va bu orqali ular turmush tarzini yaxshilash davlat ijtimoiy himoya siyosatining bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi. mehnat qonunchiligida belgilangan imtiyozlarni nogironligi bo'lgan shaxslar hayotiga tatbiq etish huquqni qo'llash bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. aytmoqchi bo'lganimiz, qonunchilikda belgilangan imtiyozlarni qo'llashda bandlik va kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, bandlikka ko'maklashish markazlari, ish beruvchilar mas'ul sanalishadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 42-M.
2. O'zbekiston Respublikasi 641-sonli qonuni. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida. 15.10.2020 yil. 42-M.
3. BMT tomonidan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya. 13.12.2006. 27-M.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 21 dekabrda PQ-57-son qarori.
5. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 avgustdagi 486-son qarori. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi.
6. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi. 30.04.2023 yil.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).